

MATN VA UNING XUSUSIYATLARI

Xusanova Mahliyo Abdunazarovna

(Kommunikatsiya va matn turlari)

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada matn va uning ta'rif, lingvistik xususiyatlari, matn turlari, o'zbek tilshunosligida matn muommolari tahlili, badiiy matnda obrazlar talqini va tahlil qilish usullari hamda matnning tarkibiy qismlari, matn ustidan tadqiqot olib borgan olimlar fikrlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: *Matn, badiiy matn, kommunikatsiya, obraz, maksimal matn, minimal matn, paradigmatic munosabat, makro va mikromatn.*

ABSTRACT

This article discusses the text and its definition, linguistic features, text types, analysis of text problems in Uzbek linguistics, methods of interpreting and analyzing images in a literary text, as well as the components of the text, and the opinions of scholars who have conducted research on the text.

Keywords: *Text, literary text, communication, image, maximum text, minimum text, paradigmatic relationship, macro and microtext.*

KIRISH

Tilshunoslikda matn tushunchasi gapdan ko'ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan nutq ko'rinishidir. Har qanday og'zaki va yozma nutq ko'rinishi matn hisoblanib, ular bir necha gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishlaridan tashkil topgan va bunday mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan qo'shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og'zaki nutq ko'rinishiga mikromatn deyiladi. Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topgan yaxlit asar makromatndir. Matn tipologik jihatdan axborotni uzatishda alohida o'rin tutadi. Bunda matn og'zaki matn va yozma matn tiplarini farqlash mumkin. Matn bir so'zdan ham iborat bo'lishi mumkinmi? degan savol tug'iladi, agar biz "Bahor"... So'zini olsak uning zamirida fasllar kelinchagi, yashillikka burgangan olam kabi ma'nolar yotadi. Demak, biz buni matn deb olamiz. Matn ma'lum bir mazmun ifodalashi kerak bo'lgan yaxlit tuzilma hisoblanadi. Muhabbat Kurbonova hamda Ma'rufjon Yo'ldoshevlarning "Matn tilshunosligi" qo'llanmasida matn minimal va maksimal matn tiplariga ajratilgan, bunga ko'ra minimal matn yuqorida aytganimizdek, Bahor... so'zining o'zi butun holda mazmun tugal ifodasini topishi mumkin, maksimal matnda esa keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyojida yuzaga kelgan ma'no butunligi nazarda

tutiladi. Badiiy uslubda hikoya qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar hisoblanadi. Bunday matnlarga asosan epigraf, muqaddima, so‘nggiso‘z hamda boshqa qo‘shimchalar kiritilishi mumkin. Makromatn hamda maksimal mantnni bir biridan farqlab olishimiz lozim, maksimal matn matn tipologiyasi hisoblanadi [2. 38 b, 115 b]. Makromatn esa bir butun holda yaxlitlanib kelgan fikrlarni ifodalaydi, makromatnga misol qilib, Abdulla Qodiriyning “Bemor” hikoyasini olishimiz mumkin, asar bir butun holda muayyan fikrni boshidan oxirigacha ifodalab tugallab kelgan. Matnni tipiklashtirishda ularning lisoniy strukturasi ham nazarda tutilishi kerak. Shunga ko‘ra, turg‘un strukturali matn (ma‘lumotnoma, dalolatnoma, annotatsiya, patent kabilar) va erkin strukturali matnlar (maqola, hikoya, she‘r, roman, kabilar) bilan farqlanadi. Bunda berilayotgan axborotning mazmuni asosiy o‘lchov vazifasini bajaradi. Bundan tashqari matnlarni nutqiy muloqotning asosiy shakllariga uyg‘un ravishda hikoya, muhokama, tasviriy matnlarga ajratish mumkin. Matn tiplarini belgilashda yana bir omil asos nutqining funksional uslublaridan bo‘lib, Matn funksional uslubiy mohiyatga ko‘ra, ilmiy matn (tezis, maqola, ma‘ruza, taqrizlarga), badiiy matn (nasriy, nazmiy asarlar), rasmiy matn (ma‘lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiyanomalar), ommabop matn (maqola, suhbat, tabrik, va xitob nutqi matnlari) ajratish mumkin. Matn maqsad va mohiyatan tilning ikki muhim vazifasidan birining kommunikativ yoki estetik vazifani bajaradi. Bunga ko‘ra matn badiiy matn va nobadiiy matn turlariga bo‘lindi [5.115b, 44b]. Asosiy maqsad mohiyatida kommunikativ vazifa yetakchilik qilsa bunday matn nobadiiy matn hisoblanadi. Asosiy matn mohiyatida estetik vazifa ustunlik qilsa unda bunday matn badiiy matn deyiladi. Shu bilan birga matn insonlar orasida faqatgina muloqot jarayoni bilangina chegaralanib qolmaydi. U insonlarning hissiyotlarini, tuyg‘ularini, hayajonlarini, azob va qayg‘ularini ifodalash, shu orqali kitobxon va tinglovchining ta’sirlanishini, voqealar olamiga tortishni xohlaydi. Bunda matnda obrazlar va makon-zamon jarayonlari asosiy rol o‘ynaydi. Bu ko‘proq badiiy matnda o‘z ifodasini topadi. Shunga asosan badiiy matn bir qancha tiplarga bo‘linadi: hikoya mazmunli matn, tasviriy matn, didaktik matn, izoh mazmunli matn, xabar-darak mazmunli matn, so‘roq mazmunli matn, buyruq-istak mazmunli matn, hissiy ifoda mazmunli matn [5.115b, 44b]. Unutmaslik kerakki, biror bir matn tiplarining hammasi yoki ayrimlari ishtirok etgan bo‘lishi mumkin. Yoxud butun boshli asar yuqorida qayd etilgan matn tiplaridan faqatgina bittasi asosida shakllangan bo‘lishi mumkin. Masalan, T.Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi qahramonlari polvonlarning mardligi, jasorati va kurashning ajdodlardan avlodlarga qadimdan meros qolib kelayotganligini hikoya qiladi. Bu asarda obrazlarning harakati albatta o‘quvchiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Yuqoriga nazar tashlaydigan bo‘lsak,

didaktik matn haqida soʻz yuritdik, yaʼni pand – nasihat ruhida yozilgan matn boshdan oxirigacha oʻquvchini va tinglovchini oʻzidan xulosa qilishga chorlaydi. Misol uchun Ezop masallaridan birida: “Kiyik bilan tokzor” matnida yaxshilik va yomonlik mavzusi ulugʻlanadi. Bunda kiyikni ovchilardan barglari bilan yashirgan tokzor va bu yaxshilikka javoban tok barglarini uzib yegan kiyik holati ifodalangan. Bu matnda oxir – oqibatini kalta oʻylagan, ovchilar ketdi deb tok barglarini yeyotgan kiyikning ovchilarga koʻrinishi, ovchilar tomonidan esa uning otib tashlanishi, kiyikning nafs oʻz boshiga balo boʻlganini hikoya qiladi. Buning asosiy gʻoyasi yaxshilikka yomonlik bilan javob qaytarmaslik va yomonlikning jazosi muqarrarligi hamda ochkoʻzlik yomon illat ekanligi taʼkidlangan.

MUHOKAMA VA NATIJALARI

Maʼlumki, har qanday butunlik kabi matn ham uni tarkib toptiruvchi qismlardan iborat boʻladi. Tilshunoslikda qanday birliklar aynan matn birligi deb hisoblanishi borasida bir qancha munozarali fikrlar mavjud. Matnga taʼrif berilganda ikkita asosiy belgiga, yaʼni bogʻlanishlilik va yaxlitlikka alohida eʼtibor beriladi. Bogʻlanishlilik va yaxlitlik gaplar orasida va gaplarning mazmuniy-grammatik birligi asosida yuzaga keladi. Biz matnni qismlarni topish uchun matnni kamida ikkita gapdan tuzilgan murakkab sintaktik butunlik qilib olishimiz kerak. Gaplar oʻzaro turli bogʻlovchilar vositasida birikadi. Ularga takroriy boʻlaklar olmoshlar, makon-zamonni ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari, modal soʻzlar kabi turli leksik - grammatik birliklar kiradi. Bundan tashqari, gaplar oʻzaro bir-biriga bogʻlanishi uchun turli xildagi birliklar talab etiladi. Gʻarb tilshunoslari tomonidan matnga berilgan taʼriflarda gaplarning ketma-ket kelishi, gaplar zanjiri matnda asosiy jihat ekanligi, busiz matn yuzaga kela olmasligi muntazam taʼkidlanadi. Aksariyat tilshunoslar gapni matn birligi emas deb qaraydilar. Masalan I.K.Galperin gap emas, balki bir qator gaplarni birlashtiradigan nisbatan yirik butunlik frazadan katta butunlik matn birligi boʻla olishini aytadi. U gap ana ana shunday butunlikda konstituent sifatida ishtirok etishini, frazadan katta butunlikni tarkibiy qismi boʻlgan gap bir paytning oʻzida yaxlit matnning ham tarkibiy qismi boʻla olmasligini taʼkidlaydi.

Ayni shu frazadan katta butunlik matnning asosiy birligi sifatida baholash barcha tilshunoslarda keng tarqalganligini aytish mumkin. Bu termin orqali ifodalangan tushuncha turli tilshunoslar tomonidan turlicha nomlanadi, yaʼni mazkur termining bir qancha sinonimlari mavjud. Masalan, “frazadan katta butunlik” (O.Axmanova), “murakkab sintaktik butunlik” (A.M.Peshkovskiy, N.S.Pospelov), “matn komponenti” (I.A.Figurovskiy) va boshqalar. Oʻzbek tilshunosligida ham

mazkur tushunchani ifodalash uchun bir qator farqli terminlar qo'llaniladi. Masalan, A.Mamajonov dastlab "yirik sintaktik birlik" terminini qo'llagan bo'lsa, keyinroq muntazam ravishda "superfrazali sintaktik birlik" terminidan foydalanadi. I.Rasulov va H.Rustamovlar esa "murakkab sintaktik butunlik" terminini ma'qul ko'radilar. O'zbek matnidagi ana shunday birliklarni monografik tarzda tadqiq etgan M.Abdupattoyev "supersintaktik butunliklar" terminini qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

Matn va uning tabiatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar XX asr o'rtalariga kelib paydo bo'la boshladi. Matn tilshunosligi masalalari ko'pgina tilshunos olimlarning e'tiborini tortgan. Jumladan, V.Matezius, F.Danesh, V.Dressler, P. Hartman, I.Kovtunova, I.Galperin, K.Gauzenblas, N.Pospelov, T.Silman, N. Shvedova, K.Solganik, L.Loseva, O.Maskalskaya, K.Abdullayev, N.Navro'zova kabi tilshunoslar matn kategoriyasi haqida muhim fikrlarni ilgari surishgan [2.115b, 6b]. Matnning nutq kategoriyasi ekanligi masalasi bevosita "nutqiy jarayonning o'zi" va "nutqiy faoliyat natijasi" tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir. Chex olimi K.Gauzenblas matnning ham nutqiy faoliyat sifatida ham, nutqiy faoliyat mahsuli sifatida og'zaki nutqiy jarayon, deb talqin qilgan. I.R.Galperinning fikricha, matn yozma nutq mahsulidir, og'zaki nutq esa turli qaytariliqlarni, uzuq-yuluq gaplarni ham fanda o'z ichiga oladi va uni tekshiruv obekti bo'la oladigan matn deb e'tirof etish maqsadga muvofiq emas. Degan fikrlarni o'rtaga tashlashgan. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab o'zbek olimlari ham matn tilshunosligining nazariy muommolari bilan shug'ullana boshlaganlar. Bu jihatdan, B.O'rinboyev, R. Qo'ng'urov, J.Lapasovlarning "Badiiy tekstni lingvistik tahlili" nomli o'quv qo'llanmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda matn tiplari, ularning umumiy va o'ziga xos belgilari matnning lisoniy tahlili metodologik tamoyillari, matn yaratish muommolari ifoda vositalarini tanlashi va ularning matn tuzilishidagi roli singari dolzar masalalar haqida malumotlar berilgan. O'zbek tilshunosligida matn tadqiqi xususida gap ketganda, M.Toxsanovning "Mikromatn va o'zbek badiiy nutqida uning kogeretligini ifodalovchi vositalar" mavzusidagi nomzodlik ishini takidlash lozim. A.Mamajonovning 1989-yilda nashr qilingan "Tekst lingvistikasi" nomli qo'llanmasi ushbu masalaga bag'ishlangan dastlabki o'quv qo'llanma ekanligi bilan diqqatga sazovordir [3.115b, 8b]. M.Hakimovning "O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari" xususida nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilining ilmiy uslubi kategoriyasi aspektida o'rganilgan, gumanitar fanlarga oid ilmiy mantlarni sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini ochib beradi. Professor E.Qilichevning "Matnning lingvistik tahlili" nomli o'quv qo'llanmasida matnning ko'rinishlari va uni lisoniy tahlil qilish namunalari berilgan. Matn muommolari tadqiqida yana bir jiddiy

ish D. Xudoyberganovanning “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomli monografiyasidir [7.115b, 10b]. Mazkur tadqiqot matni XX asrning oxirida shakllangan antroposentrik paradigma asosida tahlil qilish masalasiga bag‘ishlangan. Unda o‘zbek tilidagi matnlarning kognetiv-semantik, psixolingvistik, lingvokulturologik xususiyatlari ochib beriladi. Jumladan, o‘zbek tilidagi konseptning matn orqali ifodalanishi kognetiv metaforalar, shaxsning diskursiv faoliyati, shaxs va matn referensiyasi, matn va kommunikativ strategiya kabi jihatlari tahlil qilingan.

Insonlar orasida kommunikatsiyasi jarayoni hozirgi kunga kelib tez suratlar bilan o‘sib bormoqda. Ular og‘zaki va yozma ko‘rinishda yetib kelishi mumkin. Yozma holda ma’lumotlarni tinglovchiga yetib kelgan ko‘rinishi bu matn hisoblanadi. Matn kommunikatsiyada ham faol ishtirok etadigan universal jarayoni hisoblanadi. Kommunikatsiya (lot. Communication, communico dan- “umum bilan qilaman, muloqot qilaman) degan ma’nomlarni bildiradi. Insonlar orasida fikr almashish va muloqot jarayoni hisoblanadi. Hozirgi kunda insonlar orasida ma’lumot almashish jarayoni o‘sib borayotganligi sabali, telegram, telegraf hamda boshqa vositalar yordamida matnlarni yozma shaklda va og‘zaki shaklda yuborish shakllandi. Matn ma’lumot yetkazishning universal vositasi sanaladi, chunki unda keng qamrovli (gazeta matni, radio orqali eshittiriluvchi matnlar va boshqalar) shaxslararo kommunikatsiyada ham qo‘llanishi mumkin.

Matn tahlili bir nechta tamoyillar asosida amalga oshiriladi, bu borada jiddiy izlanish olib borgan M. Yo‘ldoshev badiiy matn tahlil qilish tamoyillarini bir qancha tiplarga ajratib ko‘rsatgan. Bular:

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili
 2. Makon va zamon birligi tamoyili
 3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili
 4. Badiiy matndagi poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash tamoyili
 5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili
- [4.115b, 44b]

1. Shakl va mazmun tamoyili. Borliqdagi narsa va hodisalarning o‘rtasidagi aloqadorlik, bog‘lanish turlaridan biri shakl va mazmunning dialektik birligi tushunchasidir. Shakl va mazmun birligi har qanday matn uchun zaruriy xususiyat hisoblanadi. Badiiy matn ham shaklan ham mazmunan mutlaqo o‘ziga xos bo‘lgan murakkab va serqatlam estetik birlikdir. Matndagi ochiqlik va yashirin mazmun muallif badiiy niyatini ochib berishga xizmat qiladi. Bu matnning shakli mazmuni bilan uzviy aloqada bo‘lib yozuvchi mahoratiga ham bog‘liqdir.

2. Makon va zamon birligi tamoyili. Matnning til xususiyatlari tekshirilayotganda birinchi undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasi hisobga olib yondashiladi. Har qanday asar davr va zamon bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Makon va zamon birligi tamoyili faqatgina badiiy matn uchun asosiy xususiyat bo‘lib qolmay u barcha turdagi matnlar uchun asosiy xususiyatdir. Tarixiy mavzudagi matnlarda muayyan zamon ruhi, voqealarning qaysi zamonda yuz berayotganligi, asar tili va qanday muhitda yuz berayotganligini leksik-grammatik jihatdan asoslab beradi.

3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili. Tahlil qilinayotgan matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini o‘rganish ham bir tamoyildir. V.V. Vinogradov “Badiiy adabiyot tili haqida” (1959) nomli asarida ta’kidlaganidek, badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda uning turli tarmoqlanishini tarixdan tamoman ajratgan holda o‘rganish mumkin emas. Badiiy matnning ikki turini farqlash mumkin: 1) zamonaviy matn (bugun yaratilgan matn) 2) tarixiy matn (o‘tmishda yaratilgan matn). Zamonaviy matnning ham o‘z navbatida ikki turini kuzatish mumkin: a) bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn b) tarixiy mavzudagi zamonaviy matn. Misol uchun, S. Ahmadning “Azroil o‘tgam yo‘llarda” hikoyasi bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn, M. Alining “Ulug‘ saltanat” romani tarixiy mavzudagi zamonaviy matn, Navoiyning “Farhod va Shirin” tarixiy matn hisoblanadi.

4. Badiiy matnda poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash tamoyili. Badiiy asardagi poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash tamoyili ham muhim tamoyillarda biri hisoblanadi. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin.

5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarning lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyili. Matn ichida qo‘llanilgan o‘zga matn ko‘rinishlari (nazira, taqlid, naql, hadis, rivoyat, miflar, afsonalar, didaktemalar, u yoki bu ijodkorning asari yoki parchasi kabi) aniqlash va ularning mazmuni bilan qay darajada uyg‘unligi badiiy mazmun ifodasining o‘rni, asosiy matn bilan lisoniy va semantik bog‘lanishdagi muhim holatlar haqida fikr yuritish badiiy matn lingvopoetikasini ochishda zarurdir [4.115b.50b].

Badiiy matnga namuna: O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani. Bu asar Ikkinchi Jahon urushi davri hamda o‘sha davrdagi xalqning ijtimoiy ahvoli, insonlarning boshidan kechirgan qiyinchiliklari aks etgan. Bu asar urush davri bilan hamnafas yozilgan asardir. Romanning “Dadamni yo‘qotib qo‘ydim” bobida: “Dadam o‘qituvchi. Men tengi qizlar dadamning maktabiga qatnaydi. Men

bormayman, onamga ko‘z – quloq bo‘lib o‘tiranman. Dadam ishdan kelib, oyimga qaraydi. Keyin patnisning orqasiga harf yozib, meni o‘qitadi”. Ko‘rinib turibdiki, “Ikki eshik orasi” asari yaxlit holda makro matn hisoblanib, hikoya matni sirasiga kiradi. O‘sha davr voqealari asar qahramonlarining har biri tilidan hikoya qiladi. Bu asardan parchada esa asar qahramoni Robiyaning tilidan bayon qilinyapti. O‘quvchiga o‘zining va jamiyatning ahvolidan hikoya qilayapti.

XULOSA

Matn bu insonlarga fikrlarni yozma shaklda hamda og‘zaki shaklda bayon etish usuli bo‘lib, hozirgi kunda ma‘lumot almashishning eng universal ko‘rinishi hisoblanadi. Matnlar mazmuni o‘quvchi va tinglovchining his-tuyg‘ularini ifodalab ularga ta’sir etish kuchiga egadir. Matnlar har doim ma‘lum bir fikrni ifodalab, dalillab keladi. Bu jihatlarining bir qancha turlari bilan yuqorida tanishdik. Demak, matnlar so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida ma‘lumot almashish hamda ular o‘rtasidagi makon va zamon munosabatlariga aniqlik kiritadi. Shu bilan birgalikda, matnlar mikromatn, makromatn, maksimal matn va minimal matnlar ma‘lum bir jarayondan hikoya qilib yoki o‘sha jarayonni tasvirlab, muhokamaga qo‘yib berishi yoki didaktik ruhiyatga olib kirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. T. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
2. Kurbanova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi, Toshkent “Universitet” 2014
3. Mamajonov A. Tekst linvistikasi-T. 1989.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili.T Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslar. T. 2007.
6. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T “Fan”, 2008.
7. Xudoyberganova. D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. T. “Fan” 2003.